

O'ZBEK BADIY TARJIMASIDA MADANIY BIRLIKLAR, YA'NI REALIYALARNING MADANIYATLARARO TALQINI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17796479>

Raupova Muxayyo Nosirovna

O'zDJTU, ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrası v.b dotsenti, f.f.f.d, (PhD)

muramuhayyo@gmail.com

Maxsuma Ikromova

Chirchik State Pedagogical University

Master's Degree Student

ikromovamaxsuma@mail.ru

Annotatsiya

Har bir tilda badiiy tarjimaning asosiy xususiyati o'sha tilning o'ziga xos badiiy vazifasi hamda madaniy estetik imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Har bitta badiiy asarning tarjimasi bu – alohida bir “badiiy voqelik” bo'lib, unda muallif dunyoqarashi, milliy ruh va madaniy qadriyatlar o'z ifodasini topadi. Shu o'rinda, tarjima nazariyasida badiiy asarlarning tarjimasida “*realiya*” lar muhim o'rin egallaydi. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz badiiy tarjimasida madaniy realiyalarning tutgan o'rni va ularning badiiy tarjimada qanday talqin qilinishi o'rganiladi. Shu bilan birga, tarjima jarayonida tarjimonlar madaniy bog'langan birliklarni tarjima qilishda duch keladigan lingvomadaniy muammolar, asarning asl mazmuni va milliy ruhini saqlab qolishda qo'llaniladigan samarali strategiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

realiya, ekvivalent, ekzotik lug'at, dennotativ, konnotativ, lingvomamlakatshunoslik, lingvokulturologiya.

Annotation

The main characteristics of literary translation in any language are determined by the specific artistic function of that language. The translation of each literary work represents a separate form of “artistic reality.” In this regard, *realia* plays a significant role in the theory of literary translation. This article examines the role of cultural *realia* in Uzbek and English literary translation and explores how they are interpreted within the translation process. In addition, the study analyzes the challenges translators face when translating culturally bound units, as well as

effective strategies used to preserve the original meaning and national spirit of the text.

Keywords

realia, equivalent, exotic lexis, denotative, connotative, Country studies, Linguoculturology

Аннотация

Основные особенности художественного перевода в каждом языке определяются его специфическими художественными функциями. Перевод любого художественного произведения представляет собой отдельную «художественную реальность». В данной связи в теории перевода важное место занимают реалии при переводе художественных текстов. В данной статье рассматривается роль культурных реалий в узбекском и английском художественном переводе, а также исследуются способы их интерпретации в процессе литературного перевода. Кроме того, анализируются проблемы, с которыми сталкиваются переводчики при передаче культурно обусловленных единиц, а также эффективные стратегии сохранения первоначального содержания и национального духа произведения.

Ключевые слова

реалия, Эквивалент, Экзотическая лексика, Денотативный, Коннотативный, Лингвострановедение, Лингвокультурология.

KIRISH

Realiya soʻzi lotin tilidan olingan boʻlib, moddiy jihatdan mavjud boʻlgan narsa, obyektlarni nazarda tutgan holda *haqiqiy narsalar* degan maʼnoni bildiradi, yaʼni mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud boʻlgan narsalarni anglatadi. Madaniy bogʻlangan birliklar, yaʼni realiyalarni (madaniy xos birliklar) madaniyatlararo talqin qilish sanʼati oʻzbek badiiy tarjima sohasida oʻziga xos muhim ahamiyat kasb etadi va har bitta tarjimondan katta mahorat talab qiladi. *Realiyalarni* oʻrganish va ular bilan bogʻliq tadqiqotlar koʻlamini kengaytirish muayyan bir tilning ichki taraqqiyot xususiyatlarini oʻrganishda va oʻzaro madaniyatlar oʻrtasidagi farqlarni keng va aniqroq yoritishda oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. Dunyo tilshunosligida ushbu masalaga bagʻishlangan tadqiqotlar koʻlami anchagina keng va realiyalarni tarjima qilish muammolari quyidagi chet el olimlarining tadqiqot ishlarida koʻrishimiz mumkin: L.N.Sobolev, M.I. Vaysburg, L.S. Barxudarov, A.V. Fedorov, G.V. Chernov, A.E. Suprun, E.M. Ve-Reshchagin va V.G.Kostomarov, I. I. Revzin, V. Yu. Rosenzweig kabi mashhur tilshunos olimlar shular jumlasidandir. Shu oʻrinda, 1952-yilda L.N. Sobolev "realiya" atamasini zamonaviy maʼnosida ishlatgan va hatto unga ancha izchil taʼrif bergan [1:290].

G.V. Chernov ham realiya haqida yozgan, lekin u asosan "ekvivalent bo'lmagan lug'at" atamasidan foydalanadi [2:223]. A.E. Suprun realiyani "ekzotik" lug'at deb biladi [3:231] va V.Rossels realiyani tarjima kategoriyasi sifatidagi ba'zi asosiy xususiyatlarini bayon qiladi [4:169]. O'zbek tilshunosligi va tarjima nazariyasida ham *realiya* masalasi bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular badiiy tarjima, tarjimaning madaniyatlararo talqini, ekvivalentlik, milliy rang va lingvomadaniy tushunchalar borasida tadqiqotlar olib borishgan va bu borada quyidagi olimlarning asarlari va ilmiy maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin: G'ulom Salomov "Tarjima nazariyasi asoslari", "O'zbek tarjimashunosligi masalalari", Abdusattor Qodirov "Tarjima jarayonining lingvistik asoslari", Dilmurod Quronov "Matn va talqin", Nasim Komilov "Tasavvuf va badiiyat", Ulug'bek Normatov "Tarjimaga doir mulohazalar", Ziyoda Xolmanova "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", Muhammadali Hakimov "Madaniyatlararo muloqot va tarjima" (ilmiy maqolalar turkumi), Sayfulla Yusupov "Lingvomadaniyat va etnolingvistika" shular jumlasidandir. Har bir tilda o'z aksini topgan milliy *realiyalarni* tilshunoslikning *lingvomamlakatshunoslik* deb ataluvchi sohasida o'rganiladi. Tilshunoslikning *lingvokulturologiya* sohasida esa *realiyalarni muqobilsiz leksika* tushunchasi doirasida o'rganiladi. Muqobilsiz leksika bu- ma'lum bir xalqning milliy qadriyatlari va madaniyatiga xos bo'lgan narsa va hodisalar tushuniladi. L.S.Barxudarovning fikriga ko'ra: "Muqobilsiz leksika-bir tildagi leksik birliklarning boshqa bir tilda qisman yoki to'liq muqobilga ega bo'lmashidir"[5:59].Ushbu ta'rif tarjima jarayonida milliy-madaniy komponentlarning o'rnini anglashda juda muhimdir. Men Barxudarovning ushbu mulohazasiga qo'shilaman, chunki haqiqatan ham har bir tilning leksik tizimi o'z millati, madaniyati, tarixiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois "osh", "sumalak", "gap", "mahalla", "choyxona" kabi so'zlarning boshqa tillarda to'liq ekvivalenti topilmaydi va ular tarjima jarayonida izohiy usul yoki transliteratsiya yo'li bilan ifodalanadi. Barxudarovning ushbu fikrini *lingvistik realizm* va *madaniy semantika* nuqtayi nazaridan to'g'ri va asosli deb hisoblayman. Muqobilsiz leksika mavjudligi tillarning madaniy noyobligini ko'rsatadi hamda tarjima jarayonida har bitta tarjimondan kreativ yondashuvni talab qiladi.

Tarjima jarayonida *realiyalarni* tarjima qilish tushunchasiga ikki tomonlama shartli deb qarash mumkin. Qoida tariqasida *realiyalar* lug'atda tarjima qilinmaydi va yana, qoida tariqasida, *realiyalar* tarjima orqali emas , kontekstda yetkaziladi. Bu borada tilshunos olim A.V.Federov o'zining quyidagi fikrini keltirib o'tgan: *boshqa tilga, hech bo'lmaganda tavsifiy jihatdan, ya'ni o'sha tildagi so'zlarning umumiy kombinatsiyasi orqali tarjima qilinmaydigan so'z yo'q* [6:182]. Federovning fikri tarjima imkoniyatlarini juda keng talqin qiladi. Biroq tavsifiy tarjima so'zning faqat

denotativ mazmunini berishi mumkin, uning **konnotativ**, **milliy-madaniy**, **assotsiativ**, yoki **simvolik** qatlamlari ko'pincha yo'qoladi. Masalan, "Navro'z", "mahalla", "sumalak" kabi birliklar oddiy tavsif orqali to'liq tarjima qiymatini bera olmaydi. Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, tarjimonlar realiyalarni tarjima qilishda ma'lum bir qiyinchiliklarni yengib o'tishlariga to'g'ri keladi.

Tarjimada realiyalarni yetkazishda ikkita asosiy qiyinchilik mavjud: birinchisi- realiya ifodalayotgan obyektning tarjima qilinayotgan til madaniyatida mavjud bo'lmaganligi sababli unga mos keladigan so'z yoki iboraning (ekvivalenti, analogi) yo'qligi; ikkinchisi- realiyaning faqatgina obyektiv ma'nosi (semantikasi)nigina emas, balki uning tarixiy va milliy rang-barang ma'no qatlamlarini ham to'liq yetkazish zaruriyati. Binobarin, milliy rang-baranglikni saqlab qolish va uni yetkazish realiyalarni tarjima qilishda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan shu muammo tarjimonlar tez-tez duch keladigan muammodir. *Rang* — bu so'z bildirayotgan obyektning muayyan xalq, hudud yoki tarixiy davrga mansubligi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos ma'no ohangidir. Bunga sabab, ushbu obyektning ma'lum bir madaniyat, hayot tarzi, urf-odat va dunyoqarashga xos jihatlar bilan bog'liq bo'lishidir. Ya'ni, u muayyan davr yoki jamiyatga xos bo'lgani uchun boshqa xalqlar, mamlakatlar yoki tarixiy davrlardagi tushunchalardan farq qiladi. Shu sababli, realiyalarni tarjima qilish jarayonida tarjimon avvalo ushbu "rang"ni, ya'ni realiyaning milliy-tarixiy mazmuniy qatlamini hisobga olishi lozim. Chunki aynan shu xususiyat uning tarjima usulini tanlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, realiyalar – bu ma'lum bir xalqning turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari, hayot falsafasi va milliy qadriyatlarini ifodalovchi birliklar bo'lib, ular quyidagilar bo'lishi mumkin: *etnografik birliklar (taomlar, liboslar, buyumlar), tarixiy ishoralar, ijtimoiy qadriyatlar* va hattoki *diniy ramzlar va marosimlar* bo'lishi mumkin. Masalan: *do'ppi, chopon, sumalak, doira, rubob, iftor*, kabi so'zlar ingliz tilida aynan muqobilga ega emas. Xuddi shuningdek, ingliz madaniyatidagi *pub, Thanksgiving, afternoon tea* yoki *tea time* kabi tushunchalarni o'zbek tiliga osonlik bilan tarjima qilib bo'lmaydi. Bu jarayon har bitta tarjimondan katta mehnat va mahoratni talab qiladi. Ba'zan tarjimada realiyalar soddalashtiriladi, buning natijasida esa asarning milliy koloriti kamayadi. Masalan, o'zbek tilidagi "*ayvon*" so'zi ko'pincha tarjimada *veranda* tarzida beriladi, ammo bu so'z o'zbek madaniyatigagina xos bo'lgan *ayvonning* mazmun-mohiyatini to'liq ko'rsata olmaydi. Yoki "*beshik*"so'zini oladigan bo'lsak, bu so'z ingliz tiliga *cradle* yoki *baby crib* deb tarjima qilinadi, ammo bu so'zlar ham o'zbeklardagi beshikning tuzilishi, shaklini va marosimiy ahamiyatini to'liq ko'rsata olmaydi. Shunday ekan, realiyalarni tarjima qilishda tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasi muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek badiiy tarjimasida realiyalar o'ziga xos ahamiyat kasb etgan holda, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini, an'analarini, milliy dunyoqarashini ifodalovchi birliklar sifatida tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi. Realialar – muayyan bir millatning madaniyatiga xos lingvistik “kodlari” bo'lib, ularni tarjimada boshqa tilga to'liq ifodalash ko'pincha qiyin masala. Tarjimadagi asosiy talablardan biri – milliy mintalitetni o'quvchiga yetkazishdir. Tarjimonning madaniy kompetensiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, realiyalar tarjimasi shunchalik to'liq va mukammal bo'ladi. Agarda tarjimon asarning milliy ruhini qanchalik maksimal darajada saqlasa, o'quvchiga ma'no va kontekstni tushunarli yetkaza olsa va realialarning semantik, konnotativ va estetik qatlamlarini imkon qadar himoya qila olsa, demak, o'sha tarjimon ikki madaniyat o'rtasidagi vositachi sifatida o'z vazifasini ustidan chiqa olgan hisoblanadi. Aynan realiyalar har bitta tilning ichki lug'at boyligi, frazeologik qatlami, lingvomadaniy birliklarining mazmun-mohiyatini yoritishda muhim birliklar sifatida talqin qilinadi. Yuqoridagi fikrlarga muvofiq tarzda, realiya atamasini o'zining asl ma'nosida qo'llaymiz va uning bir qancha semantik belgilarini ajratib olamiz. Bular: *xalq ijodi mahsuli ekanligi; muayyan xalq hayotiga (turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishiga) oidligi; boshqa madaniyat vakillari uchun notanish hisoblangan narsa-buyumlarni ifodalashi; milliy va tarixiy bo'yoqqa ega bo'lganligi; boshqa tillarda aniq ekvivalentiga ega bo'lmasligi*. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, realialarni muayyan xalqning milliy, madaniy, ijtimoiy hayotini, turmush tarzini, boy urf-odat va an'analarini o'zida yorqin aks ettiruvchi va shu xususiyatlari bilan boshqa xalqlar milliy madaniyatida takrorlanmaydigan, o'ziga xos birliklar deya ta'rif berishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Соболев Л.Н.** *О переводе изображения.* – Москва: Вопросы художественного перевода., 1955. – С. 290.
2. **Чернов, Г.В.** *О передаче безэквивалентной лексики при переводе советской журналистики на английский язык.* – Москва: чёные записки 1-го Московского государственного педагогического института иностранных языков, 1958. – С. 223.
3. **Супрун, А.Е.** *Экзотическая лексика.* – Москва: ФН, 1958. – С. 231.
4. **Россельс, В.** *Перевод и национальное своеобразие оригинала.* – Москва: Вопросы художественного перевода: Советский писатель, 1955. – С. 169.

5. **Бархударов, Л.С.** *Язык и перевод.* – Москва: Международные отношения, 1975. – С. 59 .
6. **Федоров, А.В.** *Основы общей теории перевода.* – Москва: Высшая школа, 1968. – С. 359.